




BOSHLANG'ICH SINFLARDA EKSKURSIYALARINI TASHKIL QILISH.



Talaba: To'ychiyeva Lezitta Anvar qizi.

Ilmiy rahbar: Alimardonova Mo'tabar.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Pedagogika" fakulteti.

Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi.

Annotatsiya : Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining sinfdan tashqari tashkil etilgan ekskursiyalarini tashkil etish, o`quvchilar ta`lim va tarbiya olishida ekskursiyalarning o`rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, har bir fanni mustahkamlash uchun ekskursiyalar tashkil etish mumkinligi haqida, bunday ekskursiyalardan kutilayotgan natijalar haqida mushohada yuritilgan. O`quvchilarni Vatanga muhabbat, uning meroslarini qadrlash, uni asrab-avaylash, ekologik ta`limni boyitib borish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ishchilar mehnatini qadrlash kabi bilim va tarbiyani to`gri tashkil etilgan ekskursiyalar orqali singdirish mumkinligi haqidagi xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: ekskursiya, ta'lif, tarbiya, natija, fan, tabiat, boshlang'ich sinf, maqsad, mashg'ulot.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lif va pedagogik amaliyotda muhim yo'nalishlardan biri - ona zaminning tabiiy boyliklariga munosabat, hurmat, o'simlik va hayvon olami, tabiiy muhitni himoya qilish va to'ldirish hissi yosh avlodni to'g'ri, mas'uliyatli shakllantirishni o'zida aks ettiradi. Insonlarni bolalikdan tabiat holati uchun javobgarlik, tabiatdagi muammolarni hal qilish uchun mas'uliyatli qilib tarbiyalash lozim.

Ekologik ta'lifning uzluksiz jarayonida asosiyalaridan biri bu boshlang'ich mактабга tegishli bo'lib, unda kichik yoshdagи o`quvchilar tabiiy va ijtimoiy muhit



haqidagi bilimlar bilan boyitiladi, dunyoning yaxlit tasvirini o'rganadilar, axloqiy va estetik munosabatni shakllantiradilar.

Samarali ta'lif, tarbiya va rivojlanish uchun sezgir davr - bu boshlang'ich maktab yoshi hisoblanadi. Rivojlanishning ushbu davrida tengdoshlari bilan munosabat, atrof-muhitni sinchkovlik bilan o'rganish, kattalar xatti-harakatiga qiziqish, xulq-atvorlari rivojlana boshlaydi.

Ayniqsa, bu rivojlanish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliik yorqin namoyon bo'ladi. Bolaning shaxsiyati yangi maqomga ega bo'ladi, yangi ijtimoiy rol - maktab o'quvchisi, ya'ni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik faoliyatning ishtirokchisiga aylanadi.

O'qituvchilar va ota-onalar boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning bunday psixologik jihatdan farqlanishini hisobga olishlari kerak.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari ishlar orqali tarbiya berishda ekskursiyaning roli katta hisoblanadi. o'rta ta'lif mакtablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko'ra, soatlik, birkunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin. Bir soatga mo'ljallangan ekskursiya - geografiya maydonchasida yoki o'quv tajriba yer maydonchasida o'tkaziladi. Bir kunga mo'ljallangan ekskursiyani - tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo'jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog'iga tashkil etish mumkin. Ekskursiya insonning dunyoqarashini kengaytirish usulidir. Ushbu tadbirda ishtirok etishdan maqsad ma'lum bir mavzu, joy yoki voqeа haqida bilim olishdir.Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har doim mакtabning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan, chunki bolalik va yoshlik Vatanga muhabbatning muqaddas tuyg'usini singdirish uchun eng qulay davrdir. Maktab o'quvchilarida o'z Vatani, o'z xalqi bilan faxrlanish, uning erishgan ulkan yutuqlari, o'tmishning munosib sahifalariga hurmat tuyg'ularini shakllantirish zarur.Ekskursiya turizmi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularni mustaqil ijodiy faoliyatga undaydigan, tashabbuskorlikni tarbiyalovchi, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi samarali vositadir. Tashqi dunyoga yo'naltirilganlik,

atrofdagi dunyoni amaliy bilish boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda qiziquvchanlik kabi sifat xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi deya bemalol ayta olamiz. Har bir ekskursiya samaradorligi nafaqat tanlangan ob'yekt, gid bilimiga, balkim ekskursiyani olib borish texnikasiga ham bog'liq. Ekskursiya jarayonidagi tartib, materiallarni qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar aynan texnikaga bog'liq. Boshlanǵich sinflarda tabiat qóyniga ekskursiyalarini tashkil etishning turlari nihoyatta

kóp. Tabiatshunoslik fanini o'qitishda ekskursiyaning ahamiyati katta. Ularsiz ushbu fanni o'rganishni samarali olib borish mumkin emas. Umumiy o'rta ta'limga maktablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko'ra, bir soatlik, birkunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin. Bir soatga mo'ljallangan ekskursiya – geografiya maydonchasida yoki o'quv tajriba yer maydonchasida o'tkaziladi. Bir kunga mo'ljallangan ekskursiyani – tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo'jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog'iga tashkil etish mumkin. Ekskursiya insonning dunyoqarashini kengaytirish usulidir. Ushbu tadbirda ishtirok etishdan maqsad ma'lum bir mavzu, joy yoki voqeа haqida bilim olishdir. Ekskursiya faoliyati tushunchasining kengligidan kelib chiqqan holda, ekskursiyaning ko'plab turlari mavjud bo'lib hisoblanadi.

Ekskursiya ózi nima degan savolga tóxtalib ótaylik. "Ekskursiya" so'zi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, yurish yoki sayohat degan ma'noni ifodalaydi. Bu tushuncha individual yurish yoki sayohatni anglatadi diqqatga sazavor joylar, ilmiy, ta'lim yoki kóngilochar nuqtai nazardan qiziqish. Ekskursiyada uchta element ishtirok etadi va ekskursiya ob'ekti (yoki predmeti). Ekskursiya ob'ekti tarixiy, madaniy, estetik yoki ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'iekt yoki hodisadir. Diqqatga sazovor joyga tashrif gid tomonidan nazorat qilinadi. Ob'iektni ko'zdan kechirishda ekskursiya turiga qarab bir yoki bir necha ekskursionist ishtirok etadi. Ekskursiyani o'tkazish maqsadi uning yo'nalishini belgilaydi. Ko'pincha sayohat qiziqarli bo'ladi. Bunday sayohatlar ajralmas qism hisoblanadi. Aks holda ekskursiya tarbiyaviy hodisaga aylanadi. Ekskursiya materiallari 3 turga bo'linadi.



- ekskursiya marshrutidagi haqiqiy ekskursiya ob'yektlari;
- qo'shimcha illyustrativ materiallar (gidportfelidagi ko'rgazmali materiallar);
- so'zli-obrazli material gid mahoratiga bog'liq bo'lib, voqealarni yorqin tushuntirib berish evaziga erishiladi. Ayniqsa boshlang'ich sinf

o'quvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har doim mакtabning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan, chunki bolalik va yoshlik Vatanga muhabbatning muqaddas tuyg'usini singdirish uchun eng qulay davrdir. Vatanparvarlik tarbiyasi deganda o'quvchilarda o'z vataniga muhabbat hissini bosqichmabosqich va barqaror shakllantirish tushuniladi. Vatanparvarlik har tomonlama rivojlangan shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Maktab o'quvchilarida o'z Vatani, o'z xalqi bilan faxrlanish, uning erishgan ulkan yutuqlari, o'tmishning munosib sahifalariga hurmat tuyg'ularini shakllantirish zarur. Ekskursiya turizmi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularni mustaqil ijodiy faoliyatga undaydigan, tashabbuskorlikni tarbiyalovchi, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi samarali vositadir. Tashqi dunyoga yo'naltirilganlik, atrofdagi dunyoni amaliy bilish boshlang'ich mакtab yoshidagi bolalarda qiziquvchanlik kabi sifat xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi deya bemalol ayta olamiz. Har bir ekskursiya samaradorligi nafaqat tanlangan ob'iekt, gid bilimiga, balkim ekskursiyani olib borish texnikasiga ham bog`liq. Ekskursiya jarayonidagi tartib, materiallarni qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar aynan texnikaga bog`liq. Ekskursiyada jarayonida uni olib borish texnikasi gid professional ustaligining va uning qanchalik kóp tajribaga egaligi ,ayniqsa, bolalar bilan birga ishlashish mahorati qanchalik boy ekanligi asosiy qismi bo`lib, uning ekskursiya guruhini boshqarishdagi rahbarlik mahorati ana shu jihatlari bilan amalda sinaladi. Ekskursiyani olib borish texnikasiga quyidagilar kiradi:

- gidni guruh bilan tanishishi;
- sayyoohlarning avtobusdan tushishi;
- avtobusdan ob'iektgacha bo'lган harakat;
- guruhnинг ob'iekt oldida joylashishi;



- avtobusga qaytish;
- texnologik sxemaga mos ravishda ekskursiya rejasiga amal qilish;
 - sayyoqlar bilan savol-javob o`tkazish;
 - ekskursiya jarayonida individual matndan foydalanish;
 - "gid portfeli"va ovoz yozish tasmasidan foydalanish;
 - mikrofon bilan ishlash.

Xulosa .Bolalarni tabiat qóyniga sayohatga olib borishda eng kóp ma'sulyat óqituvchi bóynida bóladi. Shu bois, har bir bola bilan toǵri ishlashish, ularning xulq-atvorini toǵri tahlil qilish kerak. Óquvchilarni tabiatga sayr qildirish ularning ijodiy qobiliyatining ham bevosita rivojlanishida ahamiyati katta. Faqat tórtta devor ichida an'anaviy tarzda dars tashkillashtirmastan ona-tabiat qóynilarida, boǵ-u xiyobonlarda hamótkazsak bóladi. Undagi kózlanadigan foyda óquvchilar ruhlanib, yaxshi kayfiyatda darslarni o'zlashtiradilar.

Foydalilanigan adabiyotlar .

1. Ta'lif taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lif, "Sharq"1999-yil, 7-maxsus son.
- 2.Rustam Jo'raqulov. Boshlang'ich ta'lifning bugungi kundagi dolzarb muammolari. Ta'lif va taraqqiyot. 25.06.2016
3. Boshlanǵich sinf darsliklar: Tabiiy fan 1-2-3-4-sinflar
- 4.Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. -Toshkent, 2018.
- 5.Nuritdinova M. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi". -Toshkent, O'qituvchi 2005-yil.